

---

## “YANGI O‘ZBEKISTON – INSON QADRI ULUG‘LANGAN YURT”

Oltiariqda “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan yurt” shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi.



Tuman markaziy o‘yingohida poytaxtdan kelgan madaniyat, san'at namoyandalari, shoir va yozuvchilar, ma'naviyat targ‘ibochilari ishtirokida gala konsert bo‘lib o‘tdi.

Tadbirni tuman hokimi Sh.Turdaliyev kirish so‘zi bilan ochib, oltiariqliklar azaldan madaniyat va san'atni qadrlashini alohida e'tirof etdi.



O'tgan hafta davomida tumanimizning turli hududlarida tumandoshlarimiz elimiz suygan san'atkorlar va ijodkorlar bilan o'tkazilgan ijodiy uchrashuvlar va gurunlarda ular bilan dildan suhbat qurib, madaniy hordiq chiqarganliklarini mamnuniyat ila ta'kidladi.

Tantana davomida estrada xonandalari tomonidan ijro etilgan qo‘shiqlarga tadbir ishtirokchilari jo‘r bo‘lgan holda miriqib raqsga tushdilar.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-06-06 08:42:07